

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida:
UDK: 658:3:338 (575.1)

DONIYOROVA SHAXNOZA DONIYOROVNA

**SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY RESURSLARDAN
FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

**iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun**

D I S S E R T A T S I Y A

Ilmiy rahbar:
i.f.d., professor K.Z. Xomitov

Toshkent – 2024

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY RESURLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	12
1.1. Sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslarning mohiyatini tavsiflovchi tushunchalar va nazariy yondashuvlar.....	12
1.2. Sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslar tasnifi va ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'siri.....	23
1.3. Sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini baholash usullari.....	34
Birinchi bob bo'yicha xulosa	49
II BOB. O'ZBEKISTON YENGIL SANOAT TARMOG'I RIVOJLANISHI VA KORXONALARDA IQTISODIY RESURLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI TAHLILI	51
2.1. O'zbekiton yengil sanoati rivojlanishi holati va tendensiyalari.....	51
2.2. Qashqadaryo viloyati sanoat ishlab chiqarishni rivojlantirish imkoniyatlarini baholash.....	67
2.3. Yengil sanoat korxonalarida resurslardan foydalanish holati tahlili.....	76
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa	92
III BOB. INNOVATSION IQTISODIYOTDA SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY RESURLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	94
3.1. Sanoat korxonalarida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish	94
3.2. Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish asosida resurs samaradorligini oshirish yo'nalishlari.....	110
3.3. Yengil sanoatda iqtisodiy resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari va istiqbollari.....	137
Uchinchi bob bo'yicha xulosa	149
XULOSA	150
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	152
ILOVALAR	165

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida zamonaviy sanoatning yuqori darajadagi texnik-texnologik rivojlanish va ixtisoslashish jarayonlari kuchaymoqda. Natijada sanoat ishlab chiqarishi tarkibida ko‘plab ishlab chiqarish bo‘g‘mlarining kengayib borishni resurslardan samarali foydalanishni taqozo etmoqda. “2022 yilda jahon YaIMda sanoatning ulushi 30,0 foizni, mazkur tarmoqda band bo‘lganlar hisssasi 23,0 foizni tashkil etgan hamda jahon YaIMning umumiy hajmida sanoatning ulushi Xitoy, AQSh, Hindiston, Yaponiya va Indoneziya davlatlarida eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan”¹. Bugungi kunda sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish asosida yuqori natijadorlikka erishish va ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini oshirish kabi muammolarga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Jahonda sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishda bozor tamoyillariga muvofiq tarmoqda innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ishlab chiqarish jarayonlariga resurs-tejamkor texnika-texnologiyalarni joriy qilish, hamda sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikka erishish yo‘nalishidagi ilmiy izlanishlarga ustuvor darajada qaralmoqda. Bu borada sanoatda ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkil qilish, iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini baholash usullarini takomillashtirish, mehnat unumdorligini oshirish omillari va rezervlarini aniqlash, tarmoq korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish kabi yo‘nalishlardagi tadqiqotlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekistonda bugungi kunda sanoat korxonalarining muntazam ravishda barqaror rivojlanishi, ularning ishlab chiqarish faoliyati intensivligini ta‘minlashning muhim omili hisoblangan iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasida “Sanoatning “drayver” sohasini rivojlantirish va

¹ <https://strategy24.ru/rf/news/reyting-stran-mira-po-obemu-promyshlennogo-proizvodstva>

hududlarning sanoat salohiyatini to'liq ishga solish maqsadida sanoatda qo'shilgan qiymat hajmini 45 milliard dollarga yetkazish va 2,5 millionta yuqori daromadli ish o'rinlarini yaratish"² kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda korxonada iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini baholashni resurslardan oqilona foydalanishga ta'sirini belgilovchi omillar hamda ularning korxonalar va sanoat hududlari iqtisodiy rivojlanishini tavsiflovchi indekslar asosida takomillashtirish, korxonalarda iqtisodiy o'sishni integral baholash usulini ishlab chiqarish jarayonlari rivojlanishining intensiv va ekstensiv omillari ta'sirini e'tiborga olgan holda takomillashtirish, fan sig'imi yuqori bo'lgan korxonalarda innovatsion faoliyatni boshqarish samaradorligini oshirish, innovatsion-investitsion faoliyatni rivojlantirish hamda ilmiy-tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etishning maqsadli dasturini amaliyotga joriy qilish, sanoat korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishning ilmiy-uslubiy va amaliy jihatlarini tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida", 2023 yil 12 oktabrdagi PF-169-son "Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari, 2019 yil 16 sentabrdagi PQ-4453-son "Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 30 iyuldagi 633-son "Yoqilg'i-energetika resurslarining narxлари va tariflarini o'zgartirish to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy

² "Ўзбекистон – 2030" стратегияси тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158-сонли Фармони. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>